

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA Q'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**"TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI" YO'NALISHI**

**II-KURS, 210-GURUH TALABASI QODIROV ABBOS**

**TIRKASHYEVICHning**

**"TASVIRIY SAN'AT TARIXI" FANIDAN**

**YOZGAN**

# **KURS ISHI**

**Mavzu: Ibtidoiy jamoa davri san'ati va taraqqiyot  
dosqichlari.**

**Bajardi:**

**Qodirov A.**

**Qabul qildi:**

**Jabborov E.**

**QARSHI – 2015**

## **Reja:**

Kirish

### **Asosiy qism.**

1. San'at qanday kelib chiqqan?
2. Ibtidoiy jamoa davrida tasviriy va amaliy san'at.
3. Skiflar madaniyati haqida..

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar.

## Kirish

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat taraqqiyoti tarixidagi eng birinchi va uzoq davom etgan bosqichlardan hisoblanadi. Bu bosqichni qamma xalq va elatlar o'z boshidan kechirdilar. Ana shu uzoq davom etgan taraqqiyot jarayonida hozirgi zamon odami tipi paydo bo'ldi, odamlar jamoasi yuzaga keldi. Ishlab chiqarish kuchlarining zaifligi odamlarni kollektiv bo'lib yashash va mehnat qilishga da'vat etdi. Ular qudrat bir-likda ekanligini hayotning ilk bosqichidayoq sezdilar. Bu qudrat ularni tabiat sirlarini o'rganishga boshladi. Madaniyat va san'at ravnaqiga zamin yaratdi.

Olimlar ibtidoiy jamoa davriga oid juda ko'p faktik materiallarni o'rganish, tabiiy fanlar tarixi va hozirgi zamon fanining yutuqlarini umumlashtirish hamda taqqoslash asosida uning ilmiy tarifini berdilar. San'at qadim-qadimda kishilarning mehnati jarayonida yuzaga keldi va rivojlandi. Odamlar mehnat jarayonida shakl tuyg'usini xis etib, ritm, simmetriya tushunchalarini o'zlashtira boshladilar. Ular mehnat jarayonida tabiat kuchlarini o'zlariga buysundira boshladilar. Ishlatilayotgan buyumlarning shakli bajarayotgan mehnatlarini osonlashtirishi yoki qiyinlashtirishi mumkinligini tushundilar. Qulay mehnat qurollarining unumi ularda o'z qurollariga nisbatan mexr tuyg'ularini uyg'ota bordi. Ular o'z qurollariga bezak berish orqali shu mehrlarini izhor etishga harakat qila boshladilar. Odamlarda kulaylik va foydalilik tushunchalarining yuzaga kelishi vokelikdagi, hayotdagi go'zallik va xunukliklarni xis etish imkoniyatini rivojlantira boshladi. Inson madaniyati taraqqiyot olamiga qadam qo'ydi. San'atning yuzaga kelishi insonning obyektiv voqelik to'qrisidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o'z avlodi tajribalaridan baxramand bo'lishga olib keldi. Bu uni tabiat kuchlariga qarshi kurashishga davat etdi, uning aqliy kamoloti, estetik qarashlari rivojini jadallashtirdi.

Bu taraqqiyot bosqichiidan bizgacha ashyoviy dalillar - mehnat va ov qurollari, uy-anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yetib kelgan. Shular ibtidoiy jamoa kishisining estetik va diniy qarashlarini bilishga, ibtidoiy jamoaning madaniyati haqida tasavvur xosil qilishga yordam beradi. Tuproq ostida

qolib ketgan moddiy yodgorliklar, odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, G'or va yerto'la devorlariga chizilgan surat va bo'rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbai hisoblanadi. Bulardan tashqari etnografiya, tarix, antropologiya, lingvistika, geologiya, xalq og'zaki ijodi, saqlanib qolgan turli afsonalar, fizika, ximiya fanlarining yutuqlari ham shu davr tarixi va san'ati haqidagi tushunchalarning oydinlashishiga hizmat qiladi.

## **1. San'at qanday kelib chiqqan?**

Ibtidoiy jamoa tuzumi san'ati tarixi, odamzod tafakkuri, his-tuyg'ularining paydo bo'lishi va rivojlanishidan boshlab, yer yuzida birinchi davlatlarning yuzaga kelishigacha bo'lgan davr san'atini o'z ichiga oladi, o'rganadi va tahlil etadi.

Ibtidoiy jamoa tuzumidan bizgacha ashyoviy dalillar — mehnat va ov qurollari, uy-anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari etib kelgan. Shular ibtidoiy jamoa kishisining estetik va diniy qarashlarini bilishga, ibtidoiy jamoaning madaniyati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Tuproq ostida qolib ketgan moddiy yodgorliklar, odam va qayvonlar jasadining qoldiqlari, qor va erto'la de-vorlariga chizilgan surat va bo'rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbai hisoblanadi. Taviriy san'at tarixidan bizga ma'lumki, san'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik qissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyot-da katta uzgarishlar sodir bo'ldi: aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqqan boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muqim aqamiyat kasb edi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. San'at esa o'zining spetsifik xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, qukmron sinfning ideologiyasini targib etuvchi kuchli goyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan etishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, olijanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va maqlubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. qar bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at qayot go'-zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarini kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilish yo'lidagi kurashga da'vat etdi.

San'atning ana shu safarbarlik kuchi, ayniqsa, ezuvchi va eziluvchi sinflar orasidagi ziddiyat keskinlashganda ortdi. Ikki ijtimoiy sistema: sotsialistik va kapitalistik sistema orasidagi kurash yanada kuchaygan bizning asrimizda uning bu

xususiyati yanada ortib bormoqda. Bizning mamlakatimizda san'at tarbiyaning kuchli vositasi bo'lib, kishilarni ilqor qarashlar bilan qurollantirishda, mustaqkamlashda, ularning kelajakka ishonchi va kommunistik axloq asoslarini mustahkamlashda muqim o'rin egallaydi. Ilqor, o'z moqiyati jiqatidan xalqchil bo'lgan sotsialistik san'at kishi-larni aktiv faoliyatga, jamiyatni revolyutsion tarzda qayta qurishga undaydi. Ijodkorlarimizning qaqqoniy va qayotbaxsh kommunistik qoyalar bilan suqorilgan asarlari sovet kishi-lari uchun shodlikva ilqom manbaiqamda axloqiy tarbiya vosi-tasi bo'lib xizmat qilmoqda. San'atshunoslik fanining bir bo'limi bo'lgan san'at tarixi ana shu san'at (asosan, tasvi-riy san'at)ning paydo bo'lishidan to qozirgi zamon bosqichi-gacha bo'lgan davr san'ati taraqqiyotini o'rganadi, shu davr mobaynida yashab ijod etgan va ijod qilayotgan san'atkorlar qayoti va ijodiy faoliyati bilan tanishadi, ularning asarlarini tahlil etadi, taqqoslaydi. San'at tarixi taraqqiyotida sodir bo'lgan turli badiiy maktab, yo'nalish, oqim va uslublar kurashining moqiyatini yoritadi.

Haqiqatan qam insoniyat yaratib qoldirgan madaniy boy-liklar faqat o'tmish kishilaridan qolgan yoki yaratilayotgan boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'qrisidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rganish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish o'tmish odamlarining his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarining shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, qayotga yanada keng va atroflicha yondashishga yordam beradi.

Bulardan tashqari, etnografiya, tarix soqasidagi fan yutuq-lari, antropologiya, lingvistika, geologiya, xalq oqzaki ijodi, saqlanib qolgan turli afsonalar, fizika, ximiya fanlarining yutuqlari qam shu davr tarixi va san'ati haqidagi tushunchalarning oydinlashishiga xizmat qiladi.

San'at qadnm-qadimda kishilarning mehnati jarayonida yuzaga keldi va rivojlaidi. Odamlar mehnat jarayonida shakl tuygusini qis etib, ritm, simmetriya tushunchalarini o'zlashtira boshlaganlar. Ular mehnat jarayonida tabiat kuchlarshsh o'zlariga bo'ysundira boshladilar. Ishlatilayotgan buyumlarning shakli

bajarayotgan mehnatlarini osonlashtirishi yoki qiiinlashti-rishi mumkinligini tushundilar. qulay mehnat quollarining unumi ularda o'z quollariga nisbatan meqr tuyqularini uy-qota bordi. Ular o'z quollariga bezak berish orqali o'z meqr-larini izqor etishga qarakat qila boshladilar. Odamlarda qulaylik va foydalilik tushunchalarining yuzaga kelishi voqelikdagi, qayotdagi go'zallik va xunukliklarni qis etish imkoniyatini rivojlantira boshladi. Inson madaniyati taraqqiyot olamiga qadam qo'ydi. San'atning yuzaga kelishi inson-npng ob'ektiv voqelik to'qrisidagi bilimlarining chuqurlashi-shiga, o'z avlodi tajribalaridan baqramand bo'lishga olib keldi. Bu uni tabiat kuchlariga qarshi kurashishga da'vat etdi, uning aqliy kamoloti, estetik qarashlari rivojini jadallashtirdi.

## **2. Ibtidoiy jamoa davrida tasviriy va amaliy san'at.**

Ibtidoiy jamoa tuzumi taraqqiyoti bosqichlarini tarix fani ibtidoiy jamoa tuzumi taraqqiyotini uning sotsial tuzilishiga ko'ra -1) ibtidoiy gala bo'lib yashash davri; 2) Urug' jamoasi davri (bu davr ikkiga-matriarxat va patriarxat davriga ajraladi); 3) harbiy demokratiya davri.

Arxeologiyada ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi qurol yasash uchun ishlatiladigan materiallarga karab, uch asosiy bosqichga bo'linadi:

1. Tosh asri - eramizdan avvalgi 3 ming yillikkacha bo'lgan davr. (Tosh asri, o'z navbatida, uchga bo'linadi: 1. Qadimgi tosh asri-paleolit-eramizdan avvalgi 10 ming yillikkacha bo'lgan davr. 2. O'rta tosh asri-mezolit-eramizdan avvalgi 10-6 ming yillik. 3. Yangi tosh asri - neolit - eramizdan avvalgi 6-3 ming yillikni o'z ichiga oladi).

2. Mis va bronza asri - eramizdan avvalgi 3-2 ming yillik.

3. Temir asri - eramizdan avvalgi 1 ming yillik.

## **Tosh asri**

**Paleolit yoki eng qadimgi tosh asri** (ralaios qadimgi, Litos— tosh) insoniyat taraqqiyotining eng uzoq davom etgan bosqichi hisoblanadi. Bu taraqqiyotni bir qator davrlarga ajratish mumkin: eng qadimiy yoki quyi paleolit (er. av. 150 ming yilliklar), oʻrta paleolit (er. av. 150—35 ming yillik), yuqori yoki soʻngi paleolit (er. av. 55—10 ming yillik).


Arxeologlar matlumotiga koʻra, paleolit asrida, ayniqsa, uning soʻnggi bosqichlarida tasviriy sanatning hamma turlari paydo boʻldi, diniy tushunchalar shakllana bordi. Paleolit asriga oid faktik materiallar Yevropa, Osiyo va Afrika qitalaridan topilgan. Bu davrda odamlar katta-katta toshlarning panasida, Qor va yertoʻlalarda toʻda-toʻda boʻlib yashaganlar. Bu Qor va yertulalar ibtidoiy jamoa kishisining «uyi» xisoblangan. Shu uylarning devor va shiplariga suratlar chizganlar, boʻrtma tasvirlar ishlashga xarakat qilganlar. Ana shu odamlar yashagan manzillardan topilgan mexnat, ov qurollari, turli xaykal va ramziy mazmunga ega boʻlgan shakllar ibtidoiy jamoa kishilarining estetik va falsafiy qarashlarini tushunishga yordam beradi. Dastlabki rasmlar primitiv va asosan, xayvonlar kurinishini tasvirlaydi. Mamont, yirik qoʻtos, kiyik, ot va boshqa hayvonlar rasmi tabiiy boʻyoqlarda Qor devor va shiplariga ishlangan. Paleolit sanʼatining eng gullagan davri madlen asriga (er. av. 15—10 ming yillar) tuQri keladi. Bu davrda ishlangan hayvonlar tasviri aniq, shakli haqqoniy, nisbatlari toʻQri olingan. Ularning oʻziga xos xususiyatlari (kuchli va oQir, yengil va ziyrak va x.k.) koʻrsatiladi. Ular turli xolatda va koʻrinishda tasvirlanadi. Fransiyaning Fon de Gom, Lyasko, Nio va Shimoliy Ispaniyaning Altamir Qorlari devorlariga ishlangan suratlarda hayvonlar natural kattalikda, nihoyatda jonli va tasirchan ishlangan.

Madlen davrining so‘nggi bosqichlarida murakkab kompozitsiyalar yaratishga intilish ortdi, tabiat manzaralari, xayvonlar to‘dasi rasmini ishlash, ular xarakterini biror syujetga bo‘ysundirishga intilish seziladi. Shu




**1. Зубр. Ласко. Франция. Мадлен асри.**

xususda Fransiyaning Limeyl Qoridan topilgan, tosh yuzasiga ishlangan «Kiyiklar podasi» surati va Teyja yaqinidagi Qordan topilgan suyakka ishlangan xayvonlar podasini aks ettiruvchi suratlar xarakterli.



1.Kiyiklar podasi. Limeyldan topilgan surat. Fransiya. Madlen asri. 2. Ohu, kiyik va yovvoyi echki. Kueva de la Arlana. Valensiya, Sharqiy Ispaniya.



1. Ot boshi. Lasko Qori. Fransiya. Madlen asri. 2. Yugurayotgan tuyaqush. Petroglif. Fetssan. Afrika. 3. Buqa. Petroglif. Fetssan. Afrika.

Yuqori paleolit davrida odamlar yashagan manzillarda tosh, suyak, shox, loydan yasalgan xar xil haykalchalar ham uchraydi. Relyef (ko‘proq uning barelyefi) tabiiy tosh yuzasi yoki devor satxidagi notekisliklarga ishlov berish xisobiga yaratilgan.

Xaykaltaroshlikda xam xayvonlar tasvirini yasash keng o‘rinni egallaydi. Odam tasviri, ayniqsa, ayollar xaykali paleolit avrida keng uchraydi. «Villendorf Venerasi» (Avstriya) deb nomlangan xaykali mashxurdir. Xaykal xajmi jixatidan katta emas (balandligi 0,06 m), lekin ko‘rinishi jixatidan monumental.



Vellendrof Venirasi

Bu haykalda ortiqcha detallar yo‘q. unda bosh qism biroz belgilangan, yuz deyarli ishlanmagan, past tomonida tugallik yo‘q. Lekin shunga qaramasdan, xaykal o‘zining to‘laqonliligi, ichki kuchga to‘laligi bilan esda qoladi. Lespug Venerasi (Fransiya) ham mashhur(balandligi 14,7 sm). Unda ayol haykali aniq dumaloq, oval, ellipsis geometrik shakllardan tashkil topgan. Sharqiy Yevropa, Sibir, Urta Osiyo yerlaridan bunday ayollar xaykali ko‘plab topilgan. Paleolit davrida amaliy-dekorativ san‘at namunalari xam keng tarqala boshladi. Buyumlarni naqsh bilan bezashga, turli taqinchoqlarga, tumorlarga extiyoj paydo bo‘lganligi arxeologlar topgan va topayotgan ashyoviy buyumlarda namoyon bo‘lmoqda.

**Mezolit yoki o‘rta tosh asri.** Mezolit yoki o‘rta tosh asrida (grekcha mesos— o‘rta) odamlar katta bo‘lmagan to‘daga ajralgan xolda yashay boshlashlari ularga bir joydan ikkinchi joyga erkin ko‘chib o‘tish, katta yer maydonlaridan foydalanish imkoniyatini berdi. Qurollarning (mexnat va ov qurollari) ixcham, qulay bo‘lishiga etibor kuchaydi. O‘q, kamon-yoy, qayiqning ixtiro qilinishi ibtidoiy jamoa kishisining xayoti yanada yaxshilanishini taminladi. Odamlar yo‘qoch, qamishdan foydalanib, o‘zlariga kerakli buyumlar yarata boshladilar.

Diniy tushunchalar keng yoyildi. «Narigi dunyo» tushunchasi paydo bo‘ldi, ko‘mish marosimi bilan bo‘liq bo‘lgan turli urf-odatlar yuzaga kela boshladi. Bular kishilarda murakkab tasavvur va fikrlashning paydo bo‘layotganligidan dalolat beradi. Odamlar-tasavvurining kengayishi, abstrakt tushunchalarning yuzaga kelishi san‘atning shakl va mazmun yo‘nalishida xam sezila boshlandi. San‘at mavzusi kengaydi, janrlari ortdi. Jang voqealari, ovchilikni aks ettiruvchi murakkab kompozitsiyalar yaratildi. Ishlangan suratlarda voqealarni keng, atroflicha bayon etishga intilish ortdi. Rassom o‘z fikrini bayon etish uchun obrazlarni sxematik va shartli belgilar tarzida tasvirlagani xolda, bo‘layotgan voqeaning mohiyatini ochishga xarakat qildi. Sharqiy Ispaniya, Kavkaz, Urta Osiyodan topilgan suratlar diqqatga loyiq. «Kiyiklarni ovi» (Ispaniya, Rasm 1.) suratiga nazar tashlang.



1



2

1. Кийиклар ови. Испания. Мезолит 2. То‘нҚиз ови. Испаниядаги Гасула Қорида ишланган сурат. Мезолит.

Obrazlar shartli (kamon otayotgan ovchilarda bu shartlilik yaqqol seziladi), sxematik, o‘ta soddalashtirilgan xolda tasvirlangan. Lekin bu shartlilik rassom aytmochi bulgan fikrni tushunishga xalaqit bermaydi. Ov manzarasidagi xolat — kiyiklarning jon xolatda qochishi, ovchilariing epchillik bilan olib borayotgan xujumlari, ov paytidagi shijoat, xayajon ibtidoiy jamoa rassomi tomonidan ifodali talqin etilgan. To‘nQiz ovi.( Ispaniyadagi Gasula Qorida ishlangan surat. Mezolit. Rasm 2) kompozitsiyasi ham jonli,unda to‘ng‘izlarning epchil harakati va unga tashlanayotgan ovchilarning shijoati sodda, lekin ifodali chiziq va shakllarda aks ettirilgan.

Zaravutsoy (Surxondaryo, O'zbekiston, Rasm 3.), Seymali-tosh(FarQona), Kobiston(Ozarbayjon) suratlari ham mashxurdir . Bu suratlarda ovchilarning xayvonlarga xujumi aks ettiriladi. Заравутсойдаги никоб кийиб о'лжасига яқинлашаётган овчиларни акс этирувчи расм, Саймолитош суратлари, Қобустон тасвирлари шу давр кишилариниг манавий камолотидан далолат беради.



Zaravutsoy (Surxondaryo) suratlari


**Neolit yoki yangi tosh asri.** Neolit yoki yangi tosh asrida (grekcha «peos»— yangi) odamlar faqat tabiat inyom etgan maxsulotlarni istemol qilish bilan chegaralanmay, balki uzlarni ham uni yaratishga, kupaytirishga xarakat qila boshlaydilar. Endilikda ovchilikdan tashqari, chorvachilik va dexqonchilik bilan ham shuqullana boshladilar. Odamlar chayla, suv ustiga qoziqlar(savoy) yordamida uylar qurish kengaydi. Ishlab chiqarish jarayoni kuchaya bordi, shu bilan birga, kishilarning manaviy olami, dunyoqarashi ham murakkablasha bordi. Tasviriy san'atda naturalizmdan abstrakt fikrlashga o'tish o'tish jarayoni rivojlanib bordi. Bu asrda ham toshlardan qurol yasash muxim rol o'ynadi. Lekin endilikda toshni qayta ishlash, uni pardoqlash, shu asosda juda nozik buyumlar yaratishga ko'proq etibor berila boshlandi. Kulolchilik (keramika)ning paydo bo'lishi ham yangi tosh asrining muxim belgilaridan xisoblanadi. Yangi tosh asrining keramika asri deb atalishi ham shundandir.



### **Neolit davri sopol idishlari.**

Bu asrda to'qimachilik, terini qayta ishlash ham murakkablashdi. Ijtimoiy xayotda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi, so'zsiz, odamlar orasidagi munosabatlarning taraqqiy etishiga yordam berdi. qabilalar orasidagi munosabatlarni kuchaytirdi. Asta-sekin patriarxat asri matriarxatni siqib chiqarib, jamoani oqsoqollar boshqara boshladi. Yangi tosh asri oxirlarida esa ayrim yerlarda (Old Osiyo, Misr, Xindiston) dastlabki sinfiy notengsizlik kurtak ota boshladi. Odamlarning o'troq xolga o'tishlari, tabiat qonun-qoidalarini kuzatish simmetriya, ritm, shakl tuyqularini o'stirdi. Bir xil elementlarning tekis qaytarilishi yoki oralab kelishi asosida vujudga keladigan o'ziga xos naqsh san'atini maydonga keltirdi. Naqsh yangi tosh asrida keng yoyildi, amaliy-dekorativ san'atning taraqqiy etishiga tasir ko'rsatdi. Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi. Parallel, spiralsimon va to'liqinsimon chiziqlar, konsentrik aylanalar shu davrdagi ko'pgina naqshlarning asosini tashkil etadi. Geometrik naqshlar asta-sekin sxematik odam, xayvon va o'simliklar dunyosidan olingan shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib bordi. Uning elementlari qoinot kuchlarining ramziy belgilarini aks ettira bordi. Masalan, rozetka quyosh ramzi, to'liqinsimon chiziq xarakat, suv ramzi va x. q. Naqsh san'ati endilikda dekorativ funksiyani bajaribgina qolmay, balki shu bilan birga, kishilarning Qoyaviy va falsafiy tushunchalarini xam ifodalay boshladi. Yangi tosh asrida mayda plastika xam keng yoyildi. Loy, yoqoch, shox va suyaklardan xamda qisman toshdan xaykallar ishlandi. Mavzusi, asosan, xayvonlarni aks ettirish bo'ldi. Ko'p xollarda xaykaltarosh xayvonning bosh qismini aniq tasvirlash va tana qismining umumlashma ko'rinishini ishlash orqali shunga erishadi. Bu davr sanatida ayollar xaykali, ayniqsa, keng uchraydi. Lekin bu xaykallar birmuncha sxematik va shartli yechimga ega. Bazan ayollar obrazi

shartli belgilar darajasiga tushiriladi, ayollik belgilari bo'rttirib ko'rsatiladi. Bu xusudsa Janubiy Turkmanistondan, Ukraina (Tripolye)dan topilgan ayol xaykallarini ko'rish mumkin(Ayol xaykali. YalonQoch tepa.Turkmaniston.Rasm)



Ayol xaykali. YalonQoch tepa.Turkmaniston

Yangi tosh asri xakida gapirilganda shuni takidlash lozimki, bu davrdan boshlab, san'atning lokal belgilari sezila boshladi. Misr va Ikki daryo oraliQi (Mesopotamiya), Yevropa va Sibir neolit davri san'atining o'ziga xos xususiyatlari borligi shundan dalolat beradi. Ishlab chikarish xususiyati, odamlar yashagan manzillar iqlimi, xarakteri san'atning uziga xos lokal tomonlarini belgilashda muxim rol o'ynadi. Yangi tosh asrida paleolit san'ati ananalari rivoj topgan bo'lsa xam, lekin unda inson obraziga qiziqish orta bordi, abstrakt fikr yuritishning rivoj topishi yaratilgan asarlarda shartli belgi va shakllarning ortib borishini taminladi.

### Bronza asri

Eramizdan avvalgi 3 ming yillik o'rtalariga kelib, odamlar misni qalay, qo'rQoshin, rux yoki surma bilan eritib, bronza tayyorlashni o'rganib oldilar. Bronza qurol, yaroQ-aslaha, zebu ziynat yasash uchun asosiy material bo'lib qoldi. Yer yuzida bronza asri boshlandi. Bronza asrini deyarli hamma xalq va elatlar

boshidan kechirdi. Lekin bu asr bazi xalqlarda (masalan, Eron, Mesopotamiya, Kavkaz, O'rta Osiyo) birmuncha erta, eramizdan avvalgi 3 minginchi yillar o'rtalarida boshlangan bo'lsa, boshqa yerlarda (masalan, Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Kipr va Kritda) eramizdan avvalgi 3 va 2 minginchi yillar chegarasida, Misr, Xitoy, Xindiston, Yevropada eramizdan avvalgi II minginchi yillarda sodir bo'ldi. Bronzaning ixtiro etilishi inson tafakkurining muhim Qalabasi edi. Bu ixtiro ijtimoiy hayot taraqqiyotini yanada tezlashtirdi, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirdi, mehnat unumdorligini oshirib, qo'shimcha maxsulot to'planishini taminladiki, bu o'z navbatida, inson manaviy olamining o'zgarishi va boyishiga olib keldi. Albatta, metall tabiatda bir xil tarqalmagan. Shu boisdan metallning ijtimoiy hayot taraqqiyotidagi rolining ortishi qabilalar orasida, bir tomondan, mol ayriboshlashning intensivlashishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, ular orasidagi nizoning kuchayishiga ham sabab bo'ldi. Uruqlar yagona qabila atrofida birlasha boshladi. Chorvachilik, ovchilik bilan shuQullanadigan qabilalar yuzaga keldi. Chorvachilikning dexqonchilikdan ajralib chiqishi, birinchi yirik ijtimoiy mexnat taqsimoti edi. Qabilaning yagona boshlik buysunishi esa mexnatni tashkil etishni yaxshiladi, qo'shimcha mexnat maxsulotining to'planishini taminladi. Yer yuzining ko'pgina yerlarida matriarxat davri inqirozi kuchaydi. Patriarxat davriga o'tish ayrim yerlarda tugallanadi. Nil vohasi, Ikki daryo oraliQi (Mesopotamiya), Xitoyda quldorlik tuzumi boshlandi, sinfiy davlatlar yuzaga keldi. Ijtimoiy hayotdagi bu rivojlanish tasviriy va amaliy san'at, memorlik, folklor, epos, qo'shiq va muzikaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Diniy tushunchalarning murakkablashib borishi u bilan boQliq bo'lgan yangi urf-odatlarini yuzaga keltirdi. Qabila boshliQi, oqsoqollarga etiqod bilan qarash, ularning vafotidan keyin jasadini yaxshi saqlashga xarakat qilish bilan boQliq bo'lgan odatlar rivojlandi. Ularning qabrlarini boshqalar qabridan ajratib ishlashga intilish, muxtasham yer usti tuproq qo'rQonlarining, maqaralarning yuzaga keltirdi. Qabrlarning ichki qismini ham alohida etiqod bilan bezadilar. U yerga



1. Arfa chaluvchi. Keros oroli. Mramor. Mil. av. 2880-2200 y. 2. Jangchi xudo. Bronza. Livan. Mil. av. II ming y. 3. Fleyta chaluvchi. Keros oroli. Mramor. Mil. av. 2880-2200 y. 4. Olacha-xuyuq. Mil. av. 2300 y.

qabila boshligi tirik paytida sevib ishlatgan buyumlarini qo'ydilar, surat va haykallarini ishlab, birga ko'mdilar. Bu qabrlardan topilgan sopol, metall, yoqoch, suyak, tosh kabi materiallardan ishlangan turli qurol-aslaha, uy-ro'zror va bezak buyumlari, qabr devori, buyumlarning yuzasiga ishlangan bo'rtma va rangli tasvirlar ibtidoiy jamoa davri madaniyati va San'atini bilishda kishilarning falsafiy-estetik qarashlarini tushunishda bebaho manbadir. Ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar neolitning so'nggi va bronza asrida yuzaga kelgan megalitik qurilmalarida yaqol seziladi. Odamlarning diniy tushunchalari ota-bobolar ruxi

(arvoxi) bilan boQliq xolda yuzaga kelgan bu qurilmalar katta toshlardan ko'pchilik kuchi bilan barpo etilgan. Bu qurilmalar uch — mengir, dolmen, kromlex tiplarida barpo bo'lgan. Mengirlar o'z xarakteri jihatidan tik o'rnatilgan katta toshlar bo'lib, ularning balandligi 20 metrgacha yetgan. Bazan mengirlar baliq, odam, hayvon shakllariga o'xshatib ishlangan, ko'p xollarda mengirlar yuzasiga bo'rtma tasvirlar ishlangan. Bunday yodgorliklar Yevroosiyo xududida (masalan, Armaniston, QozoQiston, Sibir) da ham ko'plab uchraydi.

Dolmenlar tik o'rnatilgan ikki yoki to'rt tosh ustundan tashkil topgan bo'lib, ularning ustki qismlari ham shunday yaxlit yassi toshlar bilan berkitilgan. Tosh ustunlar yuzasi pardozlangan, bazan ramziy belgilar chizilgan. Bu yodgorliklar qabrtosh vazifasini bajargan bo'lishi mumkin. Qisman turar joy vazifasini ham o'tagan. Dolmenlar o'z ko'rinishi va qurilishi, prinsipi jihatidan dastlabki monumental memorlik namunasi hisoblanadi.



Mengirlar.



Dolmen.



Kromlex.

Kromlex aylana bo‘ylab tik o‘rnatilgan toshlardan qurilgan bo‘lib, ular tosh to‘sinlar bilan birlashtirilgan. Angliyada Stounxendj yaqinidagi kromlex shu tipdagi qurilmaning klassik namunasidir.



Angliyadagi Stounxenj yaqinidagi kromlex (chizma va umumiy ko‘rinishlar)

Dolmen va kromlex yodgorliklari o‘arbiy Yevropa, Shimoliy Afrika, Kavkaz, Sibir va QozoQiston yerlarida uchraydi. Bronza asri yodgorliklaridan yana bir ko‘rinishi qabr ustiga ishlangan tuproq qo‘rQonlar bo‘lib, bu qo‘rQonlarning diametri o‘n metrga yetgan, atrofi esa tosh plitalar bilan aylantirilib chiqilgan. Tripolyedan (Kiyev yaqinidagi qishloq nomi) topilgan devor qoldiqlari bu yerlarda uylar ko‘proq daryo yoqalariga yaqin yerlarda qurilganligi haqida malumot beradi. Bu uylar loy va yoQochdan ishlangan bo‘lib, devorlari esa rangli naqshlar

bilan bezatilgan. Bronza asrida amaliy-dekorativ san'at yanada rivojlandi. Endilikda sopol buyumlardan tashqari hayotda mis, oltin va bronzadan ishlangan predmetlar ibtidoiy jamoa kishisi hayotida muhim o'rin egallay boshladi. Turli taqinchokdarni o'yma chiziqli naqshlar bilan bezash odat tusiga kirdi. Ayrim yerlarda kulolchilik dastgoxlarining vujudga kelishi sopol buyumlar shaklining tekis va ko'rimli bo'lishini taminladi.



Bronza davri sopol buyumlari.

Haykaltaroshlar loydan tashqari, metall, yoqochdan ham keng foydalana boshladilar. Endilikda erkaklar haykali asta-sekin ayollar haykaliga nisbatan ko'proq yaratildi. Geometrik xarakterdagi naqshlar ko'plab ishlandi. Ibtidoiy jamoa rassomi tasviriy san'atda murakkab xis-tuyqularni ham tasvirlashga intila boshladi. Sharqiy Yevropa va Osiyo yerlarida bronza asri madaniyati ravnaqi, eng avvalo, metall serob bo'lgan yerlar bilan bo'liq. Kavkazda bronza asrida yaratilgan yodgorliklar ichida Maykopdan (Kuban, Maykop shaxri) topilgan bronza, ko'mush va oltin buyumlar diqqatga sazovor. Eramizdan avvalgi 3 minginchi yillarning o'rtalarida yaratilgan buyumlar ishlanishidagi yuksak mahorat, badiiy yechimining tugalligi va nafisligi bilan xarakterlanadi. Buyumlar bezagi uchun ishlatilgan xayvonlarning xajmli tasviri uzining realistik xarakteri bilan esda qoladi.

Zakavkazyeda bronza asrining gullagan davri eramizdan avvalgi 2 minginchi yillarga to'g'ri keladi. Bu yerlarda metallni kuyish va qayta ishlash nihoyatda rivojlandi. qo'rQon osti qabrlaridan topilgan kumush, oltin va bronzadan ishlangan bezak-buyumlar, uy-anjomlari, qurol-aslahalar o'zining tuzilishi va badiiy bezatilishi bilan xarakterlidir. Idishlar yuzasi bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Bu tasvirlarda ov manzarasi, ko'p figurali kompozitsiyalar uchraydi. Kavkaz ustalari yaratgan metalldan ishlangan kamarlar ham xarakterli. Ularning yuzasi o'yma naqshlar bilan bezatilgan, hayvonlar tasviri ham uchraydi. Bronza asrining so'nggi bosqichida (er. av. 2— 1 minginchi yillar) Kavkazda Koban (Shimoliy Kavkaz, Osetiya) madaniyati rivojlandi. Bu yerdan metalldan ishlangan turli buyumlar topilgan, ularning yuzasi chiziqli naqsh va tasvirlar bilan bezatilgan. Ayniqsa, bronzadan ishlanib yuzasiga o'yma tasvir va naqshlar tushirilgan, uncha katta bo'lmagan boltachalar mashhurdir.

Koban madaniyatida mayda plastika ham o'rinni egallaydi. Turli quy-quzilar, kiyik, it haykalchalari, shuningdek, xayvon va odam boshining tasvirlari bunga misoldir. Ular tinch va xarakterli paytida tasvirlangan. Metall eritish va undan buyumlar yasash Janubiy Sibir yerlarida eramizdan avvalgi 2 ming yillikda boshlandi. Bu yerlardan topilgan metall buyumlar yuzasi chiziqli va bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan, ularning yuqori qismida hayvonlar haykali yoki bosh qismining tasviri bo'lgan. O'rta Osiyo yerlarida bronza asri eramizdan avvalgi

3 ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi. Bu yerlarda metallardan buyumlar ishlash

keng tarqaldi. Jumladan, FarQonadan topilgan bilaguzuklarda qo'y va sher tasviri, ayniqsa, tasirli chiqqan. Sopolli tepa yodgorliklari(Surxandaryo vil.) ular ichida bronzadan ishlangan turli buyumlar , nafis sopol buyumlar shu davrda markaziy Osiyodagi muhim jonlanishdan dalolat beradi. Bronza asrida O'rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlandi.

Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi esa, soʻzsiz, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va goʻzal boʻlishini taminladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora boʻyoqlar bilan rasm va naqshlar ishlangan sopol buyumlar diqqatga sazovordir.

Kobiston (Ozarbayjon ) dan topilgan tosh yuzalariga ishlangan suratlar ham bronza asri yodgorligidir. Bu suratlar kontur chiziqlar yordamida bajarilgan boʻlib, ovchilik tasvirlanadi. Ovchilarning sher, toʻq echkilarini ovlashlari koʻrsatilgan. Bronza asri insoniyat taraqqiyotining muhim bosqichi boʻldi. Inson tafakkurining rivojlanishi natijasida mehnat unumdorligining ortishi, ishlatilgan mehnat qurollari ish samaradorligining kutarilishiga imkoniyat berdi. Bu, oʻz navbatida, sanʼat va madaniyat taraqqiyotiga katta taʼsir qildi uning keyingi bosqichga koʻtarilishiga zamin yaratdi.

### Temir asri

Ibtidoiy jamoa tuzumining soʻnggi bosqichi boʻlgan temir asri, insoniyat maʼnaviy dunyosining murakkablashishi, ijtimoiy hayotda urush, talon-torojlikning kuchayishi va jamoada harbiy rahbarlarning roli ortishi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy hayotga kirib kelgan temir, tosh va qisman, bronza buyumlarni hayotdan siqib chiqardi. Oʻz xususiyati jihatidan mustaxkam boʻlgan bu metall ishlab chiqarish kuchlarining ortishi va mehnat unumdorligining kuchayishiga samarali tasir qildi, ayniqsa, dehqonchilik madaniyatini kengaytirdi, qoʻshimcha maxsulotning toʻplanishi esa sinfiy notenglikni yanada kuchaytirdi, patriarxal qulchilik paydo boʻldi, qabilalar orasidagi munosabatlar murakkablashdi. Bular, mudofaa masalalariga etiborning kuchayishi, u bilan boʻliq qurilish va texnikani rivojlantirishga tasir qildi, rahbarlik xarakterini oʻzgartirdi. Dinning mavqei orta bordi, ommaga psixologik tasir etish formalariga etibor kuchaydi. Ibtidoiy jamoa tuzumi soʻnggi bosqichining xarakteri shu davrda yaratilgan mudofaa xarakteriga ega boʻlgan mustaxkam qala va qoʻrQonlarda, bezakka boy uy-anjomlari, jang qurollarida, kumish marosimi bilan boʻliq boʻlgan urf-odat buyumlarida koʻrinadi. Temir asrida xam amaliy dekorativ Sanʼat

yetakchi o'rinni egalladi. Kulolchilik texnikasining murakkablashishi, kulolchilik uchun dastgoxlarning keng kulamda ishlatilishi uning sifatini o'zgartirdi, yangi tur va formalarni yuzaga keltirdi. Bezash ishlarida geometrik naqshlardan tashqari, syujetli kompozitsiyalardan foydalanish tamoyillari rivojlandi. Mayda plastikada metallardan ishlangan haykalchalar, janrli kompozitsiyalar paydo bo'ldi. Ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichi temir asri san'ati va madaniyatini Yevropada galshtat, Sharqiy Yevropa va Osiyo yerlarida esa skif madaniyati tasavvur etish imkoniyatini beradi.

Galshtat san'ati va madaniyati (Yodgorlik topilgan manzil Galshtat, Xalshtat, (Avstriya) nomi bilan ataladi. O'rta Yevropaning janubida yashagan bir qator qabilalar tomonidan ilk temir asrida (er. av. 1000—400 yillar) yaratilgan. Galshtat madaniyatining eng gullagan davri eramizdan avvalgi 5—4 asrlarga to'qri keladi. Bu davrda amaliy san'at va xunarmandchilik, ayniqsa, rivojlandi. Galshtat madaniyatining asosiy qismi qablardan topilgan yodgorliklar bo'lib, bular ichida bronzadan, qisman oltin va shishadan ishlangan buyumlar uchraydi.

Kulolchilik buyumlari qo'lda xamda dastgoxda yaratilgan bo'lib, ularning yuzasini bezashda o'yma va bo'rtma naqshlar, band va tepa qismlari uchun xaykalchalar ishlatilgan. Shu xususda bronza va kumushdan yasalgan chelaklar - situlalar xarakterlidir. Galshtat madaniyatida rassomlik va xaykaltaroshlik salmoqli o'rinni egallaganligini Shimoliy Italiya qabrlaridan topilgan buyum va suratlarda, qabrtosh yodgorliklarida ko'rish mumkin. Rasm va bo'rtma tasvirlarda jang va bazm manzaralari, bayramlar, qo'shiq aytish, muzika asbobi chalish paytlari aks ettirilgan. Galshtat san'atida aravada ketayotgan odamlar (jangchilar) tasviri ko'p uchraydi. Shuni alohida qayd etish lozimki, galshtat san'atida odam tasviri keng uchraydi. Tasvirlashda primitivlik bor, anatomik aniqlik yetishmaydi, lekin ibtidoiy jamoa rassomining inson qiyofasiga tez-tez murojaat qilishi, uning dunyo, odamlar, xayot to'qrisidagi tasavvur, o'y-xayollarini tasviriy vositalar orqali bayon etishga xarakat qilganligini ko'rsatadi.

### **3. Skiflar madaniyati.**

Sharqiy Yevropa va Osiyoning Janubiy tomonlari, Qora dengiz va Azov dengizi soxillari, Kavkaz etaklari, Kaspiy yoqlari, Janubiy Sibir, Oltoyda yashagan bir-biriga yaqin bo'lgan bir qancha xalqlar bo'lib, ular ichida, ayniqsa, skif qabilalari yetakchilik rolini o'ynagan. Shuning uchun bu yerlar san'atini ko'p xollarda skif san'ati va madaniyati, shu davrni esa skiflar davri deb yuritiladi. Skiflar haqidagi malumot qadimni mualliflar Geradot, Strabon, Katta Pliniy asarlarida uchraydi. Ma'lumotlarga ko'ra (Geradot bo'yicha) skiflar asli osiyoli bo'lib ular Qora dengiz tomon ko'chib shu yerdagi xalqlarni siqib chiqarganlar va asta Kichik Osiyo yerlariga qadar egallaganlar, lekin keyinroq Qora dengizning shimoliy tomonlari va Azov dengizi atrofida o'z mavqlarini saqlab qolganlar. Skiflar mustaxkam qo'rQonlar, o'z boshliqlari vafotidan keyin ularga atab, katta tuproq qo'rQon qabrlar qurganlar, bino devorlarini naqsh va devoriy suratlar bilan bezaganlar. Lekin skif madaniyatida amaliy-dekorativ yo'nalish aloxida o'rinni egallagan. Oltin, kumush, bronza, suyak va yoQochlardan yasalgan turli uy-anjom, zebu ziynat buyumlari o'zining nafisligi, ishlanish texnikasining yuksakligi bilan xamon kishilarni maftun etadi. Bugungi kunda jahonning mashhur muzeyi Sank-Peterburgdagi Ermitajda saqlanayotgan 40 mingdan ortiq skif madaniyati yodgorliklari ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichi temir asrini ta'riflashga qo'l keladigan bebaho manbadir. Bu yodgorliklarning katta qismida xayvonlar tasviri ishlangan. Hayvonlar alohida yoki olishuv paytida tasvirlangan. Bu yodgorliklarning ishlanish uslubini odatda «hayvoniy uslub» deb skif madaniyatidagi hayvonlarning tasvirlash uslubiga nisbatan qo'llaniladi. Oltindan ishlangan kiyik tasviri skif san'atining nodir yodgorliklaridan biridir.




**Кийик Қалқон беаги. Олтин. Эр. ав. VI аср. С.Петербург. Эрмиажа. 2.Идиш. Қул-Оба қо'рқони. Олтин. 3. Пектораль. Семиз Қабр қо'рқони. Олтин.**

Guyo oldinga uchib borayotgandek qilib tasvirlangan bu asarda reallik noreallik bilan uyqunlashib ketgan. San'atkor kiyikni shartli shakllarda tasvirlaydi (masalan, oyoq ikkita, shox va yoli bo'rttirib ishlangan, bosh, shox, tana ishlanishi shartli), lekin bu tezlik bilan oldinga o'qdek uchib borayotgan real kiyikni tasavvur qilishga xalaqit bermaydi. Skif madaniyatining yangi xususiyatlari Azov bo'yi va Kuban atrofida olib borilgan arxeologik qazilmalar bilan bog'liq. Ulyap ovulida olib borilgan arxeologik ishlar paytida bu yerdan bronzadan ishlangan qozonlar, turli oltin taqinchoqlar va bezaklar topilgan. Bular ichida oxu haykali, oyoqlarini yig'ib yotgan yovvoyi cho'chqa(kaban), tasvirli ritonlar etiborga loyiq. Jumladan yovvoyi cho'chqa haykali ishlanish jihatidan murakkab bo'lib unda turli material va texnika(kandakorlik-kovka, graverlash,qalaylash) ishlatilgan (Rasm 4). Oxu(kiyik) boshi ham ishlanish jihatidan murakkab bo'lib uning ko'zi, lab va burunlari o'ziga xos uslubda bajarilishi ularning haqqoniy bo'lishiga xizmat qilgan.

Ulyap yodgorliklari ichida oltin va ko'mishlardan ishlangan ritonlar ham yuksak maxoratdan dalolat beradi. Ularga ishlangan hayvonlarning haykallari ifodali chiqqan.Masalan, riton uch tomoniga ishlangan pantera boshi( Rasm 3), riton yuzasiga ishlangan bo'rtma tasvir(Rasm 2) shular jumlasidandir. Skif madaniyatining inqirozi m.a.1U asrdan inqirozga uchray boshladi. Bunga sabab m.a. 339 yili makedoniyalik Aleksandr zarbasi bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan

sharqdan g'arbga ko'cha boshlagan skif qabilalardan xisoblangan sarmatlarning yurishi bo'ldi. Natijada skif san'ati va madaniyati assimilyatsiyalashib ketdi.



1



2



3



4

**1. BuQu boshi bezagi. Fragment. Ulyap. Mil. av.V a. 2. Riton.Ulyap. Mil. av.V a. 3. Riton.Ulyap. Mil. av.V-IV a. 4. To'nQiz bezagi. Ulyap. Mil. av.IV a.**

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat taraqqiyotining uzoq davom etgan bosqichidir. Shu davr ichida inson tafakkuri kamol topdi, xis-tuyQulari rivojlandi. Inson dastlab tabiat yaratgan inyomlar istemolidan o'zi maxsulot yaratishga o'ta bordi. U mexnat jarayonida san'atni yaratdi. San'at esa voqelikni obrazli bo'lishga yordam berish bilan birga, insonning o'z kuchiga ishonch xosil qilish, tevarak-atrof qoidalarini o'zlashtirib, uni go'zallik qonunlari asosida qayta qurishga imkon berdi. Ibtidoiy jamoa davri san'ati Qadimgi Sharq, antik dunyo va o'rta asr Yevropa san'ati xamda ilk sinfiy jamiyat san'atining asosini tashkil etdi.

## XULOSA

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat taraqqiyoti tarixidagi eng birinchi va uzoq davom etgan bosqichlardan hisoblanadi. Bu bosqichni qamma xalq va elatlar o'z boshidan kechirdilar. Ana shu uzoq davom etgan taraqqiyot jarayonida hozirgi zamon odami tipi paydo bo'ldi, odamlar jamoasi yuzaga keldi. Ishlab chiqarish kuchlarining zaifligi odamlarni kollektiv bo'lib yashash va mehnat qilishga da'vat etdi. Ular qudrat bir-likda ekanligini hayotning ilk bosqichidayoq sezdilar. Bu qudrat ularni tabiat sirlarini o'rganishga boshladi. Madaniyat va san'at ravnaqiga zamin yaratdi.

Biz bugungi tasviriy va amaliy san'atimiz naechog'lik rivojlanganligi haqida fikr yuritganimizda, albatta uning tarixi-san'atning kelib chiqish ildizlariga borib taqalishini tafakkur qilishimiz kerak.

Odamlarda kulaylik va foydalilik tushunchalarining yuzaga kelishi vokelikdagi, hayotdagi go'zallik va xunukliklarni xis etish imkoniyatini rivojlantira boshladi. Inson madaniyati taraqqiyot olamiga qadam qo'ydi. San'atning yuzaga kelishi insonning obyektiv voqelik to'Qrisidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o'z avlodi tajribalaridan baxramand bo'lishga olib keldi. Bu uni tabiat kuchlariga qarshi kurashishga davat etdi, uning aqliy kamoloti, estetik qarashlari rivojini jadallashtirdi.

Bir so'z bilan aytganda insoniyatning eng qadimgi - ibtidoiy jamoa davri san'ati ajdodlarimiz ongli faoliyati haqida atroflicha fikr yuritishga asos bo'ladi.

### **Fydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayev N.U. “San’at tarixi” . 1-tom. Toshkent. O’qituvchi, 1986 yil.
2. Abdullayev N.U. “San’at tarixi” . 2-tom. Toshkent. San’at, 2001 yil.
3. Oydinov N. “O’zbekiston tasviriy san’atidan lavhalar” Toshkent, O’qituvchi. 1997 yil.
4. Rahim Hasanov. “Tasviriy san’at asoslari” Toshkent-2008 yil.
5. S. *Abdirasilov*. Tasviriy san'at metodikasi. T.: «Ilm-Ziyo», 2006.
6. S. Abdurasulov, N. Tolipov. Tasviriy san’at o’qitish metodikasi. Toshkent,2007 yil.
7. S. Bo’latov, N. Tolipov. Go’zallik falsafasi. Toshkent, 2008 yil.
8. S. Abdurasulov, B. Boymetov. Tasviriy san’at. Toshkent, 2006 yil.
9. Nigmatov B.v, Ermatova A.B. Naqshi nigorlar. Toshkent, 2010 yil.
10. O’zbekiston Badiiy Akademiyatsi nashri. “O’zbekiston san’ati” majmuasi. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh taxririyyati. T. 2001.
11. O’zbekiston Badiiy Akademiyasi nashri. “San’at” jurnali.